



04.03.2024 № 116

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
PF-6247-son Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida*

“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “O‘zbekko‘mir” AJ faoliyatiga oid ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlarni shakllantirish bo‘yicha Ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, ochiq ma‘lumotlar ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda - Ro‘yxat) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ro‘yxatga kiritilgan ma‘lumotlarni rasmiy veb-sayt, Ochiq ma‘lumotlar portali va boshqa axborot resurslariga joylashtirishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

– ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan har bir ma‘lumot Jamiyatning mas‘ul bo‘lim, boshqarma va xizmatlari tomonidan belgilangan shaklda, sifatli va to‘liq shakllantirilib, davlat tilida ish yuritish masalalariga mas‘ul xodim bilan kelishgan holda tasdiqlangan PDF tarzda saytga joylashtirish uchun mas‘ul xodimga taqdim etiladi;

– Jamiyatning rasmiy veb-saytiga taqdim etilgan ochiq ma‘lumotlarni Axborot xizmati (Dushaev) va Ochiq ma‘lumotlar portaliga taqdim etilgan ma‘lumotlarni AKT xizmati (Nigmatullin) o‘z vaqtida joylashtirilishini ta‘minlasin.

3. Jamiyatning mas‘ul bo‘lim, boshqarma va xizmatlari tomonidan Ro‘yxatda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni AKT xizmati va Axborot xizmatiga taqdim etishning oxirgi muddati (ma‘lumotlarni yangilab borish muddati qonunchilik hujjatlarida aniq belgilangan holatlar bundan mustasno) quyidagi tartibda hisoblanadi:

– har chorakda yangilab boriladigan ma‘lumotlar – har chorak yakunidan keyingi oyning yettinchi sanasiga qadar;

– har yarim yillikda (har olti oylik) yangilab boriladigan ma‘lumotlar har olti oy yakunidan keyingi oyning o‘n ikkinchi sanasiga qadar;

– har yillik (bir yilda bir marotaba) yangilab boriladigan ma'lumotlar – har yil yakunidan keyingi yilning 15-fevralga qadar.

4. Jamiyat faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarning namunaviy shakllari 2-55-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

5. Rasmiy veb-sayt, Ochiq ma'lumotlar portalini yuritish, ma'lumotlarni ochiqlikni ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib-taomillar asosida (veb-manzil, format, o'lcham, shakl va boshqa talablar) joylashtirishga AKT xizmati (Nigmatullin) mas'ul ekanligi qayd etilsin.

6. Ro'yxatda ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqishga mas'ul bo'lim, boshqarma va xizmatlar ularni o'z vaqtida, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda, sifatli va to'liq shakllantirish hamda AKT va Axborot xizmatlariga taqdim qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib belgilansin.

7. Bo'lim, boshqarma va xizmatlar boshliqlari ro'yxatda ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqish va taqdim etishga mas'ul etib belgilangan xodimlari lavozimidan bo'shatilgan yoki o'zgarish holatlari bo'lgan taqdirda uning o'rniga tayinlangan yangi xodimga mazkur vazifani yuklatishi belgilansin.

8. Ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmagan yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim qilgan bo'lim, boshqarma va xizmatlar boshliqlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilsin.

9. Axborot xizmati (Dushaev):

– Jamiyatning ochiqlikni ta'minlash sohasini doimiy muvofiqlashtirib borsin;

– tahlillar va keng jamoatchilik fikrini o'rganish asosida rasmiy veb-saytda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning ko'lamini kengaytirish, sifatini oshirish va dolzarbligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqsin hamda ularni amalga oshirish choralari ko'rsin;

– taqdim etilgan ma'lumotlarning rasmiy veb-sayt, Ochiq ma'lumotlar portali ga belgilangan format va o'lchamlarda joylashtirilishini nazorat qilsin;

– Jamiyat faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqishga mas'ul etib belgilangan bo'lim, boshqarma va xizmatlar tomonidan ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi buzilgan holatlarda Komplaens-nazorat xizmatiga va rahbariyatga xabar berib borsin.

10. Jamiyatning 2022-yil 27-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-154-son Farmon haqidagi №10-RR-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

11. Devonxona (Ziyaev) ushbu buyruqni Jamiyat ijroiya apparatining bo'lim, boshqarma, xizmatlar hamda Jamiyatning tarkibiy tuzilmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

12. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

Bosh direktor

V.V. Kuznetsov

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati
Bosh direktorining 2024-yil “ 04 ” 03 ” 116 ”-son buyrug‘iga 1-ilova

**“O‘ZBEKKO‘MIR” AKSIYADORLIK JAMIYATIDA IJTIMOIIY AHAMIYATGA
MOLIK OCHIQ MA’LUMOTLARNI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA ISHCHI
GURUHI TARKIBI**

№	FIO	lavozimi
“O‘zbekko‘mir” AJ ijro apparati		
1	Yakubov. E.O	Bosh direktorning o‘rinbosari – Ishchi guruh raisi
2	Dushaev N.A.	Matbuot kotibi – Ishchi guruh raisining o‘rinbosari
3	Amanov.E.E	Komplaens-nazorat bo‘limi inspektori
4	Egamberdiev A.S.	Tashqi va ishchiki xaridlar boshqarmasi boshlig‘i
5	Umarov Z.T.	Bosh hisobchi
6	Raxmatillaeva F.A	AKsiyadorlar bilan korporativ munosabatlar xizmati rahbari
7	Abduraxmonov D.B.	Yoshlar ittifoqi kengashi raisi
8	Gubaydullin R.A.	Prognozlashtirish va iqtisodiy tahlil boshqarmasi boshlig‘i
9	Musaev D.Yu.	Yuridik bo‘lim boshlig‘i
10	Nazarova.M	Murojaatlar bo‘yicha yetakchi mutaxassis
11	Umarova M.A.	Personallarni boshqarish va kadrlar tayyorlash boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari
12	Nigmatullin Sh.N.	AKT xizmati rahbari
13	Xudaynazarov T.M.	Bosh marksheyder
14	Karimov J.T.	Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish departamenti boshlig‘i
15	Ismanov.R	“Kapital qurilish” filiali boshlig‘i
Filiallar bo‘yicha		
16	“O‘zbekko‘mir” AJ filiallari	Filiallar boshliqlari

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati
Bosh direktorining
2024-yil “04” 03 dagi
“116” -son buyrug‘iga 2-ilova

“O‘zbekko‘mir” AJ faoliyatida ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar

RO‘YXATI

№	E‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar toifasi	Ma‘lumot joylashtiriladigan axborot resurslari	Taqdim etish va yangilab borish muddati*	Ishlab chiqish va e‘lon qilish uchun mas‘ullar*	Ijro etilishi ustidan nazoratini ta‘minlashga mas‘ul
1.	O‘z faoliyatiga oid hisobot (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma‘lumotlar bundan mustasno)	Rasmiy veb-sayt	Har yili 1-martga qadar	Boshqarma boshliqlari, Axborot xizmati	Bosh direktorning yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari Axborot xizmati
	O‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar berish (axborot resurslarida e‘lon qilish)	Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar	Har yili 10-martga qadar	Axborot xizmati	Rahbarning sohaga mas‘ul o‘rinbosari, Axborot xizmati
	O‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinishiga oid o‘tkazilgan matbuot anjumanlari haqidagi ma‘lumotlarni e‘lon qilish	Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar	Har yili 1-aprelga qadar	Axborot xizmati	Rahbarning sohaga mas‘ul o‘rinbosari, Axborot xizmati
2.	Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)	Ochiq ma‘lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasi qadar	Tashqi va ichki xaridlar boshqarmasi Axborot xizmati	AKT xizmati, Axborot xizmati
3.	Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar (davlat	Ochiq ma‘lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oyning 10-sanasi qadar	Markaziy buxgalteriya, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va davlat-xususiy	AKT xizmati, Axborot xizmati

	<i>sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno)</i>			sharikchilikni rivojlantirish departamenti, AKT xizmati Axborot xizmati	
4.	Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo'yicha tashkil etiladigan xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror hamda komissiya a'zolarining ma'lumotlari (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi)	Rasmiy veb-sayt	Doimiy ravishda (bir sukdadan kechiktirmay)	Tashqi va ichki xaridlar boshqarmasi Axborot xizmati	Axborot xizmati
5.	Davlat siri bo'lgan ma'lumotlarning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning muhofaza qilinishini ta'minlagan holda tegishli o'tkazilgan har bir taftish va tekshiruv (nazorat ob'ekti nomi, nazorat tadbirining maqsadi va muddatlari, uni o'tkazgan davlat xizmatchisining lavozimi, familiyasi, ismi) to'g'risidagi ma'lumotlar	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorak yakunidan keyingi oynning 7-sanasiga qadar	Yo'nalish bo'yicha mas'ul bo'lim va boshqarmalar, AKT xizmati	AKT xizmati, Axborot xizmati
6.	Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalari ro'yxati, 50 foizi va undan ortig'i davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorak yakunidan keyingi oynning 7-sanasiga qadar	Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar xizmati, AKT xizmati	AKT xizmati, Axborot xizmati
7.	Tashkilot tomonidan yil (chorak) yakuni bo'yicha to'langan dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Ochiq ma'lumotlar portali	har chorak yakunidan keyingi oynning 7-sanasiga qadar	Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar xizmati, AKT xizmati	AKT xizmati, Axborot xizmati
8.	Tashkilot tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obektlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi oynning 7-sanasiga qadar	Markaziy buxgalteriya, AKT xizmati, Axborot xizmati	AKT xizmati, Axborot xizmati

9.	Tashkilot huzuridagi jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar hamda ularning aloqa ma'lumotlari (<i>telefon, pochta va elektron manzillari</i>) hamda jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi o'yning 7-sanasi qadar	BKUQ, Axborot xizmati	AKT xizmati, Axborot xizmati
10.	Tasdiqlangan yarim yillik va yillik ish rejalari (<i>davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno</i>)	Rasmiy veb-sayt	har olti oy yakunidan keyingi o'yning 12-sanasi qadar	Boshqaruv apparati bilan ishlash bo'limi, AKT xizmati	Axborot xizmati
11.	Jamiyat tarkibidagi korxonalarining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi o'yning 7-sanasi qadar	PB va KT boshqarmasi Axborot xizmati	Axborot xizmati
12	Bo'sh ish o'rinlari (ijroiya, hududiy va tizim tashkilotlarida), ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar	Rasmiy veb-sayt	har chorak yakunidan keyingi o'yning 5-sanasi qadar	PB va KT boshqarmasi Axborot xizmati	Axborot xizmati

* Mazkur ilovaning to'rtinchi ustunida ko'rsatilgan muddatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-son farmonida belgilangan muddatlar bo'lib, ma'lumotlar ushbu muddatlarga mutanosib ravishda tegishli axborot resurslarida e'lon qilinishi (joylashtirilishi) lozim. Ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqishga mas'ul tarmoqlar tomonidan belgilangan ma'lumotlarni farmoyishning **3-bandida** ko'rsatilgan muddatlarda Axborot xizmatiga taqdim etishlari kerak.

* Mazkur ilovada ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqish, e'lon qilish va ijro etilishi ustidan nazorat qilishga mas'ul bo'lgan tarkibiy tarmoq xodimlari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu vazifalarini bajarishga ushbu lavozimga yangi tayinlangan xodimlar mas'ul hisoblanadi.